

## O'zbekistonda oilaviy bolalar uyining tashkil etilishi

Shohida Abdullayeva  
Sojida Vahobova  
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov  
TMC instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda oilaviy bolalar uyini tashkil etish va uni tartibga soluvchi qonun hujjatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bolalar uyi, qonun, qaror, ota-ona, jamiyat, insonparvarlik

## Establishment of a family orphanage in Uzbekistan

Shahida Abdullayeva  
Sojida Vahobova  
Scientific supervisor: S.Khaidarov  
TMC Institute

**Abstract:** This article talks about the establishment of a family orphanage in Uzbekistan and the legal documents regulating it.

**Keywords:** orphanage, law, decision, parents, society, humanitarianism

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022 yil PQ-345-son qaroriga asosan oilaviy bolalar uylarini tashkil qilish va ularni moliyalashtirish, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni mazkur uylarga berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Bu qarorga ko'ra, «Mehribonlik» uylari (541 nafar), Bolalar shaharchalari (236 nafar), oilaviy bolalar uylari (46 nafar) hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarini (506 nafar) bola Milliy gvardiyaga birlashtiriladi. Bundan tashqari «SOS - O'zbekiston bolalar mahallalari» uyushmasining bolalar mahallalari bilan ham hamkorlik o'rnatildi. Bunday chora-tadbirlar yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning butkul yangilangan tizimini joriy qilish, ularni barkamol avlod sifatida rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini taminlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish berish maqsadida qabul qilinmoqda.

2021 yil 15 avgustdan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan taminlashning quyidagi tartibi o'rnatilgan: o'zlariga birlashtirilgan turar joyga ega bo'lmagan va turar joyga muhtojlar sifatida ro'yxatda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ular 18

yoshga to'lishi bilan ko'p honalin uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metr bo'lgan 1 xonali, voyaga yetgan yetim bolalar nikoh qurgan hollarda, 50 kvadrat metrdan bo'lgan 2 xonali kvartiralar ajratiladi.

Buga ko'ra ushbu toifaga kiruvchi nogironligi bo'lgan bolalarga ko'p qavatli uylarning uchinchi qavatigacha ajratiladi. Yetim va ota-ona qaramog'idan ajragan bolalarga uy-joylar mulkka egalik qilish huquqi asosida, lekin ular 30 yoshga to'lmagunicha uy-joyni sotish, hadya qilish va garovga qo'yish hamda uy-joyda o'zi va oila a'zolaridan tashqari boshqa fuqarolarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga qo'yich huquqsiz ajratiladi.

Bunda, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaning asoslangan sabablari bo'lgan taqdirda mahalliy hokimliklar tomonidan uy-joyning maydonini kengaytirish va mazkur bandda ko'zda tutilgan talablar saqlab qolingan holda sotishga ruxsat beriladi;

O'zbekistonda yoshlarga oiddavlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 6-bob. Kutilayotgan natijalar: deb nomanadi.va unda quyidagilar nazarda tutiladi.

1. Mehribonlik uylari bitiruvchilari ish bilan to'laqonli ta'minlanadi, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuviga yordamlashishda samarali mexanizmlar joriy etiladi;

2. Yoshlarning saviyasini oshirish maqsadida kutubxonalar, muzeylar va boshqa muassasalarining sonini oshirish ishlari amalga oshiriladi;

3. Yoshlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, sport inshootlarining soni 30 foizga oshiriladi;

4. Mahallalarda yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi;

5. Barcha hududlarda IT-parklar bunyod etiladi, tuman (shahar)larda raqamli texnologiyalar o'quv markazlari barpo etiladi, "Bir million dasturchi" loyihasi asosida 250 mingga yaqin yoshlar o'qitiladi;

6. Yoshlarning tezkor va arzon internetdan foydalanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi, aloqa va axborotlashtirish 2 baravar o'shirilishi ta'minlanadi;

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar ijtimoiy jamiyatga moslashishlari uchun ijtimoiy institutlar, oila, maktab, mahalla hamkorligini kuchaytirish va Vazirlar mahkamasining qarorlarini hayotga to'liq tadbiq etish va bolalarni qaramog'iga olgan oilalarga xuquqiy, pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish, bola asrab olgan ota-onalar bilan do'stona aloqa o'rnatish va bolalarning tabiatiga mos munosabatda bo'lish, ularga kasb hunar o'rgatish, bola asrab olgan oilalarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab - quvvatlash ishlarini real, kompleks nazorat qilinsa barcha rejalashtirilgan ishlarga erishgan bo'lar edik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yetim bolalarga oid muhim qarori. Janiyat. 2019-yil 11 fevral kuni.
2. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
3. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).
4. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64-67. <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652>
5. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
6. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
7. Xamidov, A. A. (2021). O 'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING KELAJAGIMIZ UCHUN AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 1(9), 408-411.
8. Turakulov, L. (2023). OILAVIY BOLALAR UYLARI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOYLAHVUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I).